



NOGIRONLIGI BOR SHAXSLARGA MEHNAT QILISH SHAROITLARINI YARATISH MEXANIZMLARI

X.A.Yulbarsova

*Farg'ona davlat universiteti
sotsiologiya kafedrasida dotsenti,*

A.X.Boliboyev

FarDU magistranti

Annotatsiya: *Maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, nogironligi bor shaxslarni jamiyatga integratsiya qilishda bandlik muammosi, munosib ish sharoitlarining yaratilishi hamda diskriminatsiyaga yo'l qo'yilmaslik chora-tadbirlari o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *Nogironlik sotsiologiyasi, nogironligi bo'lgan shaxslar, rehabilitatsiya, bandlik, diskriminatsiya, ijtimoiy tadbirkorlik.*

O'zbekistonda 630 mingdan ziyod nogironligi bo'lgan shaxslar rasmiy ravishda ro'yxatdan o'tgan. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, ulardan 162,2 ming nafari "mehnat faoliyatining muayyan turlarini bajarish uchun layoqatga ega" deb tan olingan. Biroq, 2020-yil yil holatiga ko'ra mehnatga layoqatli turli xil nogironligi bo'lgan kishilarning 21,2 ming nafari yoki 13 foizigina rasmiy ravishda ish bilan ta'minlangan.³⁸

Bugungi kunda mamlakatimizda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha yangi islohotlar tizimi belgilandi. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasining to'rtinchi yo'nalishi: adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish deb nomlanib, unda aholining ehtiyojmand qatlamlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga munosib turmush tarzini yaratish orqali farovonligini ta'minlash nazarda tutilgan. Shuningdek, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy tadbirkorlik to'g'risida"gi, "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020-yil 18-maydagi PF-5996-sonli, "Aholining hojatmand qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2016-yil 22-fevraldagi PF-4782-sonli, 2017-yil 1-dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-sonli farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-avgust PQ-4797-sonli "Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini

³⁸ <https://t.me/mehnatvazirligi/2580>





avtomatlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 21-dekabrda PQ-57-sonli qarorlari mamlakatimizda aholining ehtiyojmand qatlamlarini, ayniqsa nogironligi bor shaxslarni mehnat bilan ta'minlashda har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligini ta'minlash orqali munosib turmush tarzini yaratish borasida kuchli ijtimoiy siyosat olib borilayotganining huquqiy assoslari hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021-yil 21-dekabrda PQ-57-sonli Qarori ijrosini ta'minlash hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligiga ko'maklashishni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturiga muvofiq Vazirlar Mahkamasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligiga ko'maklashishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 20-aprelda 203-sonli qarori qabul qilindi. Bu ham nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga oid sotsial reformalarning huquqiy asosi hisoblanadi.

Xususan, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi qonun"³⁹ning 7-bobi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat qilishi va bandligi", deb nomlanib, unda 42-modda Mehnat qilishga bo'lgan huquqning amalga oshirilishini ta'minlash hamda 43-moddada Nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish va ularning bandligini ta'minlash bo'yicha munosabatlar tartibga solingan. Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish va ularning bandligini ta'minlash, shuningdek mehnat bozorida ularning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida:

- nogironligi bo'lgan shaxslarni kasbiy rehabilitatsiya qilishni amalga oshiradi, ularni mehnatda kuzatib boradi, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslarning mos keladigan ishga kirishini, saqlab qolinishini va xizmatda (ishda) lavozim bo'yicha ko'tarilishini ta'minlaydi;
- tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar, aholi bandligi to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tashkilotlarda nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilaydi;
- nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun mos keladigan kasblar bo'yicha ish o'rinlarini zaxira qilinishini ta'minlaydi;
- tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, tashkilotlarni nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirishga rag'batlantiradi, shuningdek ixtisoslashtirilgan ish o'rinlari tashkil etilishini ta'minlaydi;

³⁹."Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'RBQ – 641 sonli 2020 yil 15 oktyabr





- nogironligi bo'lgan shaxslarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlaydi;
- ixtisoslashtirilgan korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlaydi;
- nogironligi bo'lgan shaxslarni yangi kasblarga o'qitish o'quv dasturlari tashkil etilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi;
- nogironligi bo'lgan shaxslarning davlat sektoriga ishga joylashtirilishini va bandligi rag'batlantirilishi hamda rivojlantirilishini ta'minlaydi;
- nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatidan, shu jumladan ularning kasanachiligidan foydalanuvchi tashkilotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlaydi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish mahalliy mehnat organlari tomonidan ta'minlanadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan xodimlarining soni yigirma nafardan ortiq bo'lgan tashkilotlarda xodimlar umumiy sonining kamida uch foizi miqdorida nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam soni belgilanadi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatidan foydalanish uchun nogironligi bo'lgan shaxslarning ehtiyojlarini hamda mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda ixtisoslashtirilgan korxonalar va ish o'rinlari tashkil etiladi. Ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar shart-sharoitlari o'z imkoniyatlariga muvofiq bo'lgan ishlab chiqarishda ishtirok etish uchun ustuvor huquqqa ega bo'ladi⁴⁰.

Ijtimoiy himoyalash tizimining ustuvorligi nogironligi bor shaxslarni bandliginита'minlash, ish bilan band qilish masalasini hal qilishga keng yo'l ochadi. Shu o'rinda aholining ehtiyojmand qatlamlari bilan ishlashning turli yo'llari va metodlarini aniqlash, ulardagi uzviy bog'liqlik va hamkorlikni tashkil qilish, ijtimoiy-iqtisodiy omillardan samarali foydalanish muhim va dolzarb masaladir. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib nogironligi bor shaxslarni bandliginита'minlash orqali ijtimoiy himoyalash masalalarining dolzarbligini quyidagi omillar bilan belgilash mumkin:

Birinchi, jamiyatda yaratilgan ijtimoiy himoyalash tizimi aholining ehtiyojmand qatlamlari uchun ularning bandligini ta'minlash orqali munosib turmush tarzini yaratishda mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu ijtimoiy tizimdan samarali foydalanishda nogironligi bor shaxslarni bandliginита'minlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi, ijtimoiy himoyalash nogironligi bor shaxslarni bandligini ta'minlashning manzilli amalga oshirishni talab qiladi. Shu bois ham aholining ehtiyojmand qatlamlarini aniqlash, ilmiy-amaliy o'rganish, ijtimoiy faollashish tendentsiyalarini aniqlash, bandligini ta'minlashning turli mexanizmlaridan unumli foydalanish shu kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanib, mazkur jarayonni atroflicha ilmiy-nazariy tahlil qilish amaliy ahamiyat kasb etadi.

Nogironligi bor shaxslar bilan ishlovchi ijtimoiy soha xodimlarini tayyorlovchi oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va

⁴⁰“Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi O'RBQ – 641 sonli 2020-yil 15-oktyabr





yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

2022-yil – "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" deb nomlanishi ham soha mutaxassislariga muhim vazifalarni yuklaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi PF-6208 sonli "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" hamda 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-sonli "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida O'zbekistonda aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy ximoya qilish, yoshlarga ta'lim berish tizimini samaradorligini oshirish, nogironligi bor shaxslarni bandligini ta'minlash orqali jamiyatda o'z o'rnini topishlarida ko'maklashish masalasi ko'ndalang qo'yilgan. Mazkur chora-tadbirlar mamlakatimizda yashayotgan barcha nogironligi bor shaxslarni ijtimoiy himoyalashda, ularning bandligini ta'minlash orqali farovon hayot kechirishlarida mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Xususan, qonunchiligimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynaladigan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo'lmagan shaxslar qatori nogironlarni ishga joylashtirishda ham turli imtiyozlar ko'zda tutilgan. Masalan, "Aholi bandligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasida Aholi bandligi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilar etib belgilab qo'yilgan:

- ish o'rinlari tashkil etilishini rag'batlantirish va aholi bandligiga ko'maklashish, shu jumladan ish o'rinlarini tashkil etishga doir davlat buyurtmasini hamda ish qidirayotgan shaxslarni va ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlashga, qayta tayyorlashga hamda ularning malakasini oshirishga doir davlat buyurtmasini shakllantirish orqali ko'maklashish;

- ishsiz shaxslarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish, ishsizlikni kamaytirish choralari ko'rish, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirishga ko'maklashish;

- yoshlarni, ayniqsa qishloq joylardagi yoshlarni, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlari, kasb-hunar maktablari, kasb-hunar kollejlari, texnikumlar, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirishni ta'minlash bo'yicha choralarni amalga oshirish;





- aholi bandligi sohasida zamonaviy kasbiy standartlarni joriy etish, mehnatni normalashtirish hamda mehnatga haq to'lash mexanizmlarini takomillashtirish;
- aholi bandligi sohasida ayollar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni ta'minlash;
- ishga joylashtirish jarayonlariga ilg'or axborot texnologiyalarini joriy etish, aholining ishga joylashishiga ko'maklashish bo'yicha xizmatlar bozorida zamonaviy infratuzilmani va raqobat muhitini yaratish;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ishga joylashishida ko'maklashish, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish davrida ularning huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishini ta'minlash kabilar.

Nogironligi bor shaxslarni mehnat bilan ta'minlashda kvotaga ega va kvotasiz modellar mavjud. Xodimlarining soni yigirma kishidan ortiq bo'lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda mahalliy davlat hokimiyati organlari nogironlarni ishga joylashtirish uchun xodimlar sonining kamida uch foizi miqdorida ish joylarining eng kam sonini belgilaydi va zaxirada saqlaydi. Nogironlarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam sonini yaratish bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlarini ijro etmaganligi uchun korxonalar, muassasa va tashkilotga har bir yaratilmagan ish joyi uchun ana shu korxonalar, muassasa va tashkilot xodimining o'rtacha yillik ish haqi miqdorida jarima solinadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, malakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash jamiyatda sotsial o'zgarishlar sodir bo'lishini ta'minlaydi, ularning farovon yashash imkoniyatlarini kengaytiradi, bandlik muammolarini hal etish vositasi, aholining zaif qatlamlarini kambag'allikdan chiqarish omili, nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat bozorida ochiq harakatlanishini ta'minlovchi vosita hisoblanadi. Hukumat esa, o'z navbatida, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatda ijtimoiy faol bo'lishi va munosib mehnat sharoitlarini yaratish hamda ijtimoiy-iqtisodiy muhitni yaxshilash sohasida tezkor va zarur islohotlarni amalga oshirishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://t.me/mehnatvazirligi/2580>
2. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'RDQ - 641 sonli 2020 yil 15 oktyabr
3. Юлбарсова Х. А. (2016). Формирование коммуникативной компетенции будущих учителей в процессе их подготовки к технологии эффективного общения. *Молодойученый*, (20), 756-757.
6. Yulbarsova K.A. (2020). SCIENTIFIC RESEARCH METHOD AND MEANS IN SOCIAL WORK. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(4), 206-213.





7. Юлбарсова Х. А. (2020). КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК НЕОБХОДИМАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЛИЧНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ. *Интернаука*, 23(152 часть 2), 54.

8. Юлбарсова, Х. А. (2015). Теоретическая сущность и структура коммуникативной компетентности и особенности ее формирования. *Современное образование (Узбекистан)*, (11).

9. Юлбарсова, Х. А. (2021). ВОЛОНТЁРСТВО-ЭТО ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ. *Человек. Наука. Социум*, (1), 228-237.

10. Юлбарсова, Х. А. (2021). РЕАЛИЗАЦИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ПРОЦЕССА ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ. *EastEuropeanScientificJournal*, 4(3 (67)), 36-40.

11. Юлбарсова, Х. А. (2021). ПРИНЦИП ГУМАНИЗМА КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ. *Наука сегодня: вызовы и решения [Текст]: материалы меж*, 61.

12. Х.А.Юлбарсова. КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК НЕОБХОДИМАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЛИЧНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ-БАКАЛАВРА/ Актуальные научные исследования в современном мире/ 2017, 12-3, 84-88

